UDK: 378.147.88;371.037 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a212**

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI LOYIHALASHGA TAYYORLASH USULLARI

МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К РАЗРАБОТКЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

METHODS OF PREPARING FUTURE TEACHERS TO DESIGN INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Mo‘llayev Baxtiyor Mashrabovich[1]

[1]Mo‘llayev Baxtiyor Mashrabovich – Farg‘ona davlat universiteti, Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi boshlig‘i

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalashga tayyorlash usullari ko‘rsatib berilgan. Pedagogik texnologiya tizimida o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashtirish, o‘quv mashg‘ulotini loyihalashtirishda o‘qituvchi, o‘qitish jarayoni, o‘qitish natijalarini tahlil qilishi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil o‘qish, bilimlarni ijodiy tahlil qilishga o‘rgatish, o‘zlashtirilgan bilimlarni ko‘nikmalarga aylantirish uchun o‘quv mavzulari bo‘yicha metodik tizimni yaratish, o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar mazmunini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Аннотация

В данной статье показаны методы подготовки будущих учителей к разработке инновационных педагогических технологий. Проектирование учебной деятельности в системе педагогической технологии, педагог при проектировании учебной деятельности, анализе учебного процесса, результатов обучения, обучении учащихся самостоятельному мышлению, самостоятельному чтению, творческому анализу знаний. Важно создать методическую систему обучения, превратить полученные знания в навыки, а также разработать содержание знаний, умений и компетенций, которые должны освоить студенты.

Abstract

This article shows the methods of preparing future teachers for the design of innovative pedagogical technologies. Designing educational activities in the pedagogical technology system, the teacher in designing an educational activity, analyzing the teaching process, teaching results, teaching students to independent thinking, independent reading, creative analysis of knowledge It is important to create a methodical system for teaching, to turn acquired knowledge into skills, to develop the content of knowledge, skills and qualifications that students should acquire.

Kalit so‘zlar: *innovatsion pedagogika, innovatsion texnologiya, innovatsion loyiha, innovatsion usul.*

Ключевые слова: *инновационная педагогика, инновационная технология, инновационный проект, инновационный метод.*

Key words: *innovative pedagogy, innovative technology, innovative project, innovative method.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligi oshirish bilan bog‘liq muammolarni ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani tatbiq qilish orqali hal etilishi mumkin. Pedagogik texnologiya tizimida o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv mashg‘ulotini loyihalashtirishda o‘qituvchi, avvalo, o‘qitish jarayonini, o‘qitish natijalarini tahlil qilishi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil o‘qish, bilimlarni ijodiy tahlil qilishga o‘rgatishi, o‘zlashtirilgan bilimlarni ko‘nikmalarga aylantirish uchun o‘quv mavzulari bo‘yicha metodik tizimni yaratadi, o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar mazmunini ishlab chiqadi. Yaratilgan metodik tizim va o‘quv ma’lumotlar mazmuni yordamida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etadi va o‘quv mashg‘ulotlari uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllari (nazariy dars, amaliy mashg‘ulot) ni maqsadga mos tanlaydi va uni yechishga yo‘llaydi.

Buning uchun o‘qituvchi, avvalo, o‘qitish jarayonini, uning tuzilishi aniq tasavvur qilishi lozim. Ma’lumki, har qanday jarayon, ma’lum natijalarga erishish uchun oldinga qarab intilishni, harakatlar yig‘indisidan iborat. O‘qitish jarayoni o‘quvchini bilmaslikdan bilishgacha, ya’ni oddiy narsa va hodisalar mohiyat-mazmunini bilishdan, murakkab narsa va hodisalar mazmunini bilishga bo‘lgan harakat yo‘lini anglatadi. Bu jarayonda o‘quvchining bilish qiziqishlari, qobiliyatlari, amaliy

ko‘nikma va malakalari shakllanadi, dunyoqarashlari tarkib topadi, axloqiy-estetik fazilatlari tarbiyalanadi. Ya’ni o‘quvchi shaxs bo‘lib shakllana boradi. Shunga asosan o‘qitish jarayoni ta’lim o‘rgatuvchi-o‘qituvchi va ta’lim oluvchi-o‘quvchi faoliyat hamkorligining yig‘indisini tashkil etadi. Bu jarayon mahsulli bo‘lishi, ilmiy texnik taraqqiyot talablariga javob berishi uchun loyihalash lozimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’lim va tarbiya berishning muvaffaqiyatliligi va natijaga egaligi pedagog tomonidan loyihaviy faoliyatni qanchalik o‘zlashtirib olganligiga bog‘liq, chunki bu faoliyat vaziyatga qarab texnologik yechimlarni takomillashtirishga qodir, yangi ta’lim yondashuvlari va usullarini ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

V.S.Bezrukovaning fikricha, bu – ta’lim oluvchilar va pedagoglarning bo‘lajak faoliyatlarining asosiy qismlarini birinchi galda ishlab chiqishdan iborat. Har qanday loyihalash obyektining, bu pedagogik tizimmi, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi — uning ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchi va ta’lim oluvchining faoliyati loyihalash-tiriladi. Loyihalash istalgan pedagogning (tashkilotchilik, bilish va muomala qila olish bilan bir qatorda) vazifasidir, maktabda o‘quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga imkon yaratadi. Muallif yana pedagogning loyihaviy faoliyati bilan pedagogik texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni alohida ta’kidlaydi: “loyihalash jarayonida va u orqali pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishini ta’minlaydigan pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi”. Biz pedagogik texnologiya loyihalash mahsulidir, degan fikrga qo‘shilamiz [1].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy ta’limda har bir o‘quv mashg‘ulotini oldindan rejalashtirish va loyihalashtirish muhim hisoblanib, uni amalga oshirishda quyidagi qoidalarga (zamonaviy ta’lim texnologiyasini ishlab chiqishda o‘qituvchi faoliyatining ketma-ketligi) amal qilish talab etiladi:

- ta’lim jarayonini rejalashtirish;
- ta’lim jarayonini loyihalashtirish;.
- talabalar bilan hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish bosqichlarini aniqlash;
- ta’lim jarayonining tashkiliy-didaktik ta’minotini ishlab chiqish.

O‘qitishni loyihalash esa ta’limning umumiy maqsadi, mazmuni o‘quv maqsadlari o‘qish, o‘qitish, o‘zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir. Demak, o‘qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta’limning umumiy maqsadlari asosida, o‘quv maqsadlarini, buning uchun o‘qish va o‘qitishni, o‘zlashtirishni rejalashtirgan holda, o‘quv natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim ekan. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada o‘quv mazmuni asosida o‘zlashtirish natijalarini kafolatlash uchun, o‘quv maqsadlari oydinlashtiriladi va o‘quv mashg‘ulotlari loyihalashtiriladi. Bu qayta takrorlanadigan, tiklanadigan tuzilma deb qaraydigan bo‘lsak, unda o‘quv jarayoni ma’lum modullar, birliklardan iborat bo‘ladi, ular umumiy holda ushbu modullar, birliklarning qo‘shilishi asosida yagona va yaxlit mazmunga keltiriladi. Bunga eng muhimi, takrorlanadigan, qaytariladigan va tuzatishlar kiritilgan asoslangan teskari aloqaning mavjudligidir.

Ma’lumki, o‘quv jarayoni uchta bir-biri bilan bog‘liq o‘qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan: 1. Motivlar (M); 2. O‘quvchining o‘qish faoliyati (O‘F); 3. O‘qituvchining boshqaruvchilik faoliyati (BF). Shunday qilib, o‘quv jarayonini quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin. O‘J=M+O‘F+BF: Mana shu formula asosida maqsad oydinlashtiriladi, texnologiyalar belgilanadi, faoliyat yo‘lga qo‘yiladi va amalga oshiriladi. Buni oldindan rejalashtirish yoki o‘quv jarayonini loyihalashtirish deb ataydilar. Pedagogik texnologiyaning bu qismi amalda qo‘llanilganda ta’limning tabiatga uyg‘unlik qoidasiga asoslansa, ya’ni o‘qituvchining tabiiy xususiyatlari — qiziqishi, istak-xohishi, ehtiyoji, qobiliyati, aqliy kuchlari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashtirishda mazkur holat hisobga olinishi darkor.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar amaliyotida zamonaviy ta’lim texnologiyalari tamoyillari asosida o‘quv jarayonini loyihalashtirish va tashkil etishga alohida e’tibor qaratilayotgani yaxshi ma’lum. Lekin O‘zbekistonda pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o‘quv jarayonini loyihalashtirish masalasida muayyan muammolar mavjud. Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirish davomida bu borada quyidagilar aniqlandi:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o‘quv jarayoni loyihalarini tuzish, ta’lim texnologiyasi mohiyati, nazariy va amaliy asoslariga oid manbalar, maxsus adabiyotlar, metodik ishlanmalar va andazalarga ehtiyoj mavjudligi;

2. Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, xususan, soha mutaxassislarining o‘qitish loyihalarini tuzish bo‘yicha malaka oshirish va tajribalarini ommalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish muhimligi;

3. Ta’limni loyihalashtirib tashkil etishda moddiy-texnik ta’minot muammosining ijobiy hal qilinishi;

4. Ommaviy axborot vositalari orqali ta’lim jarayoni loyihalarini yaratish nazariyasining mohiyati, fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzish va o‘qitish borasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar, tajribalar xususida tahliliy chiqishlar uyushtirilishiga e’tibor qaratish;

5. Ta’limga oid xalqaro donor tashkilotlari imkoniyatlari doirasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariyasi va uning ilmiy-amaliy asoslari hamda o‘quv jarayoni loyihalari tuzishni targ‘ib etishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli harakatlarning yuqori darajada tashkil etilishi.

6. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy asoslarini ochib berishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari doirasi torligi nuqtai nazaridan loyihalashtirib o‘qitish bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalar hamda tavsiyalarni yaratish va hokazo.

Yuqorida qayd etilgan muammolarning ijobiy yechimga ega bo‘lishini ta’minlash oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

O‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzib o‘qitish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

– loyihalab o‘qitish bo‘yicha maxsus qo‘llanma va andozalar yaratish, talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish;

– ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasini o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzib o‘qitishning texnik vositalari, auditoriya jihozlari, asbob-uskunalari bilan ta’minlash, taqdimotlar o‘tkaziladigan (50-60 nafar talabaga mo‘ljallangan) xonalarni multimedia majmualari bilan jihozlash;

– talabalarga muammoli vaziyatlarni tavsiya etish, ularni hal qilishning qulay usullarini o‘ylab topish, didaktik materiallarni yangi ma’lumotlar asosida yangilash va boyitib borish, laboratoriya mashg‘ulotlarida axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha dasturlar tuzish hamda ulardan mustaqil foydalanishga erishish;

– zarur o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlash uchun kafedralarni yetarli texnik vositalar bilan ta’minlash, professor-o‘qituvchilarning kompyuter savodxonligi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish yoki qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish.

– ta’lim texnologiyasi g‘oyalarining o‘quv jarayoniga to‘laqonli tatbiq etilishi uchun mintaqaviy ichki imkoniyatlarni puxta o‘rganish;

– ta’lim subyektlarining texnikaviy savodxonligiga erishish;

– tezkor axborot xizmatini yo‘lga qo‘yish.

O‘quv mashg‘ulotining har qanday bosqichini loyihalanishiga texnologik jihatdan yondashilganda quyidagilarga erishiladi:

- ta’lim bosqichining umumiy maqsaddan kelib chiqib, oydinlashtirilgan maqsadni belgilash;
- oydinlashtirilgan maqsadga erishish uchun o‘qitish shakllari, usullari, vositalarini oldindan tanlash;
- tashxislangan o‘zlashtirish natijalariga asoslanish.

Bunda o‘quv jarayonini loyihalashtirishning o‘ziga xos tomoni shundaki, ta’lim natijasi reproduktiv ravishda o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan chegaralanib qolmasdan, o‘quv jarayoniga ijodiy, tadqiqotchilik nuqtai-nazardan yondashish ham yo‘lga qo‘yiladi. Shunday qilib, ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish, ya’ni ta’lim maqsadlarini oydinlashtirish, maqsadga ko‘ra ta’lim natijalarini kafolatlash, ta’lim jarayonida o‘quvchilar faoliyatini mustaqillashtirish, faol va ijodiy ishlarni yo‘lga qo‘yish, o‘quv jarayonini loyihalashtirish bu pedagogik texnologiyaga xos xususiyatdir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, pedagogik texnologiyaga asos solgunga qadar, ta’lim tizimida o‘quv jarayonini loyihalashni aniq va samarali qonun-qoidalari ishlab chiqilmagan. Faqat ta’lim va’zxonlikdan iborat bo‘lib qolgan. Pedagogik texnologiya, o‘qituvchiga o‘qitish jarayonini loyihalashni amalga oshirish uchun keng faoliyat maydoni yaratib, bu kamchilikka barham berdi.

Natijada ta’lim tizimida o‘qish-o‘qitish jarayonlarini loyihalash bo‘yicha aniq va yetarli qonun qoidalar olimlar tomonidan yaratilmoqda. Bu ayni paytda pedagogika ijodiy kamolot yo‘lini ochib berish deganidir.

Pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos yana bir xususiyati shundan iboratki, rejalashtirilgan o‘quv maqsadlariga erishish uchun natija kafolatlanib, loyihalanadi va amalga oshiriladi. Bunda texnologik yondashuv maydonga kelib o‘qituvchi o‘quvchiga bayon qiluvchi, ta’riflovchi, ma’lumotlarni xotirada saqlovchi loyihalashtirilgan natijaga erishishni ta’minlaydigan texnologik sxemani beradiki, oqibatda qayta tiklanadigan ta’lim sikli vujudga keladi.

Bu ko‘pgina pedagogik olimlarning fikriga ko‘ra o‘qituvchining davriy ravishda davom etadigan harakat algoritmi bo‘lib, ta’lim mazmunining yangi bo‘limlariga takror-takror qo‘llashi natijasida o‘quv jarayoni o‘z maqsadiga erishadi. Pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil qilishda loyihalash bosqichida eng yuqori malaka talab etiladi. Shu bois eng malakali metodistlar guruhi pedagogik texnologiyaning qoidalari va prinsiplari asosida metodik materiallarni ishlab chiqadilar. Ana shunday materiallar mavjud bo‘lganda pedagoglarning asosiy faoliyati tashkilotchilik va maslahat berish bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik xususiyati — o‘quv jarayonining yakuniy natijaga qarab borayotganligini kuzatish mumkin bo‘ladi.

Umumiy holda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi deb faraz qilish mumkin.

- identifikatsiyalanadigan (oydinlashtiriladigan) o‘quv maqsadlarni ishlab chiqish;
- o‘quv maqsadlarining taksonomiyasi (keng qamrovli guruhlanishi)ni ishlab chiqish;
- o‘quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadlarga erishish usuli (qator qoida va prinsiplar)ni ishlab chiqish;
- o‘quv maqsadlariga erishishni baholash.

Shunday qilib, ta’lim jarayonining qurilmasi, uni loyihalashning:

a) ta’lim maqsadlari va natijalarni belgilashni;

b) natijalar asosida (diagnostikalash orqali) nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqishni; hamda o‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasini ishlab chiqish bosqichlarini amalda qo‘llashni nazarda tutadi.

Pedagog odatda o‘qitish davomida o‘quvchilar o‘quv ma’lumotlarini qanchalik o‘zlashtirganliklari, aniq bilimlarga ega bo‘lganliklaridan xabardor bo‘lsadagina, o‘quvchini yangi bilimlar bilan qurollantira oladi. Shunga ko‘ra o‘qituvchi o‘z oldiga o‘quvchi o‘quv axborotlari, ma’lumotlarining mazmunini tushunishi, o‘zlashtirib olishi va amalda qo‘llay olishni o‘rgatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bu odatda o‘quv maqsadi deb yuritiladi. Zero, u ta’lim jarayoni oxirida kutilayotgan natija tavsifidir. Ta’lim jarayoni ikki jonli mavjudotning ishtirokida kechganligi sababli o‘qituvchi o‘rgatish maqsadini, o‘quvchi o‘rganish maqsadini amalga oshiradi. Shunga asosan

O‘quv maqsadlari bu-aniq ta’lim jarayonining yakunida ta’lim o‘rganuvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo‘lgan tajriba, xatti – harakat bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy vazifalarni bajara olishga yo‘naltirilgan fazilatlar yig‘indisi va ta’lim o‘rgatuvchi tomonidan unga erishish uchun belgilagan faoliyat mezonidir**.** Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quv maqsadi oldindan ko‘zlangan manzil hosilasidir. Zero, qanday ovqat pishirishni bilmasdan turib, ovqatga masalliq tayyorlashning ma’nosi yo‘q. Shunday qilib, maqsad, faoliyat yoki mehnat natijasi ekan, uni loyihalash bugungi ta’limning dolzarb muammolaridan biri.

Ta’lim maqsadining aniq loyihalanishi, o‘qish davomida o‘quvchilar bilimlarni qanchalik o‘zlashtirganliklaridan xabardorlik, o‘quvchining harakatlariga asoslanib o‘qitish pedagogik texnologiyaning muhim jihatlaridir.

Ta’lim-tarbiya umumiy tizimining pedagogni kasbiy shakllantirish tomon yo‘nalganligi keyingi yillarda talabalarni pedagogik oliy o‘quv yurtlari sharoitida tayyorlash tarkibi, mazmuni va texnologiyalarida jiddiy o‘zgarishlar vujudga kelishiga olib keldi. Pedagogik ta’limning insonparvarlashtirish, tabaqalashtirish va xalqchillashtirish uzluksiz ta’lim tizimini nisbatan tez moslashuvchan, o‘zgaruvchan, ochiq qildi. Natijada talabalarning o‘zlari tomonidan ta’lim olish yo‘llarini tanlashga aniq zamin vujudga keldi, bu yesa ularning kasbiy ehtiyojlari va intilishlariga ancha to‘liq javob bera oladi.

Ta’limni insonparvarlashtirish dastavval shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim g‘oyasiga asoslanadi, bu yesa savodxonlik pedagogikasidan rivojlantirish pedagogikasiga o‘tishda namoyon bo‘ladi.

Demak, ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishning shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga daxldorligi uning asosiy holatlarini aniqlashtirishni talab qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limdan kuzatilgan maqsad – kishida o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini yo‘naltira olish, o‘z taqdirini o‘zi belgilay olish mexanizmlarini qo‘llab — quvvatlash va rivojlantirishki, bular shaxsiy, o‘ziga xos obrazning shakllanishi, kishilar, tabiat, madaniyat bilan dialogik o‘zaro munosabatlari uchun zarurdir. Shu bilan birga biz o‘zining imkoniyatlarini amalga oshirish, deb kishi tomonidan unda mavjud iste’dod va qobiliyatni yeng yuqori darajada rivojlantirish jarayoni va natijasini, ularning amaliyotda tatbiq qilinishini tushunamiz. Bu, shuningdek, shaxsning o‘z — o‘zini doimiy rivojlan-tirishidan xam iboratdir. O‘z-o‘zini anglash – shaxsning o‘z harakatlari, muomalalari, intilishlari, manfaatlarini boshqa kishilar manfaatlari, harakatlari, intilishlari bilan moslashtirishga doimiy intilishidan, o‘zida ijtimoiy manfaatlarga amal qilishni vujudga keltirishdan, bunda o‘zidagi shaxsiy va takrorlanmas o‘ziga xoslikni yo‘qotmaslikdan iborat. O‘z o‘rnini belgilab olish — bu shaxsning ma’naviy, axloqiy o‘rnini shakllanishi, o‘zida “Men”ning o‘rin olishi, o‘ziga, jamiyatdagi, hayotdagi o‘z o‘rniga tushunib yetishidan iborat.

XULOSA

Loyihalash u yoki bu darajada kelajakdagi ta’lim jarayonini modellashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, tuzish-qurish qismlarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonini loyihalash — murakkab faoliyat bo‘lib, pedagogdan amaliy, didaktik, uslubiy — metodologik, buyumli va boshqa bilimlarning tizimini talab qiladi, chunki, u xayoliy darajada haqiqiy ta’lim jarayonini yoritib beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xodjaev B.Q., Juraev B.T. Pedagogik faoliyatga kirish. Monografiya. –Toshkent, 2019, -B. 124-128

2. Mullaev B.M. About The Role Of Innovative Education In The Process Of Future Professionals’ Training. Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3), Pages: 33355-33363.

3. Mullaev B.M. The role of digital technologies in improving the quality of higher education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.12, Issue09, September 2022 | ISSN: 2249-7137 | SJIF 2022 = 8.252, Pages: 23-26.

4. Mullaev B.M., N.Temirov, K.Turgunboyeva. Technology for developing creative ability in students based on cooperative education. Annals of forest Research, Journal of Forestry and Enviromental Sciences. Vol 65(1). 2022, pages 7162-7170.